

## Garmon - armon va darmonim

Ellik bir yil davomida san'atning yo'lini tutib, tuzini totib yurish asnosida elning e'tibor-u ehtiromiga tushish nasib etgan san'atkor O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Muhammadjon Shokirov o'zbek musiqa san'atida alohida o'ringa ega. Institutimizda tashkil etilgan "Garmon - dilga armon, jonga darmon" deb nomlangan ijodiy muloqotda Muhammadjon aka o'z shogirdi iste'dodli xonanda Gulnoza Karimova bilan ishtirok etdilar.

Ular o'z san'atlarini institut ahliga namoyish etib yana bir bor olqishga sazovor bo'lishdi. Dastavval, ustoz Rahimboy Jumaniyozov moderator sifatida davra ahliga bugungi mehmonlarni tadbir ishtirokchilariga tanishtirib o'tdilar. Muhammadjon akaning "Bahor" ansamblida o'z faoliyatini boshlagani, 50 ga yaqin xorij davlatlarida o'zbek san'atini namoyish etishda qatnashgani haqida ma'lumot berdi. Shundan so'ng tadbir mehmoni O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Muhammadjon Shokirov o'z shogirdi Gulnozaxon bilan o'zbekcha va hindcha qo'shiqlardan ijro etib davraga fayz kiritdi.

"Meni garmon bilan tasavvur etishadi, - deydi Muhammadjon aka Shokirov, - shuning uchun ham menga Muhammad garmon deb laqab qo'yishgan. Garmon orqali xalqqa tanildim. Raj Kapur bilan uchrashganimda unga shlyapani boshga qo'ndirgan holda, garmonni qo'limga olib, "Janob 420" va "Daydi" badiiy filmlaridan ayrim qo'shiqlarni ijro etdim. U o'z aksini ko'zguda ko'rgandek shodlanib qiyofadoshini o'zbek san'atida ko'rgandan benihoya mamnun bo'lgandi o'shanda. Mashhurlar bilan muloqot qilib mashhur bo'ldim. O'zbekiston xalq artisti Ergash Karimov yangi yildan televizion miniatyuralar teatri hajviy ko'rsatuvi bilan chiqamiz. Shunga mos holda, musiqiy shapka kerak, bastakorlarga aytsam, 2-3 oydan keyin tayyorlab beraman, - deyishayapti, siz tayyorlab bera olasizmi, qancha muddatga, deb so'radi. Men bir kunda hal etaman, dedim va va'damni bajardim. Ergash aka xursand bo'ldilar. Men ham Televizion miniatyuralar teatrining chiqishi bilanoq yangraydigan musiqaning bastakori sifatida tohanuz g'ururlanib yuraman." Muhammadjon akaning ushbu mulohazalari intilganga tole yor ma'nosida barchani ruhlantirib yubordi. Tadbir mazmundor va qiziqarli tarzda o'tdi.



**"Gumanitar fanlar" kafedrasining o'qituvchisi Bahridin Muqimov axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**